

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIY MATNLARNI TAHLIL QILISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Yuldasheva Nigora Sultanovna

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

+998-99-451-78-96. yuldashevanigora07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15492578>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnni tahlil qilishga o‘rgatishda integrativ yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi. Integrativ yondashuv asosida adabiyot, ona tili, tasviriy san’at, musiqa kabi fanlararo bog‘liqlikda o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, estetik didi va og‘zaki nutqi rivojlanishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotda amaliy tajriba asosida bu yondashuvning dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashi, o‘quv motivatsiyasini oshirishi va matnga chuqur yondashuvni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada dars dizaynini integratsiyalashgan holda tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, badiiy matn, tahlil, integrativ yondashuv, fanlararo integratsiya, metodika, og‘zaki nutq, estetik did, tahliliy fikrlash.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of the integrative approach in teaching elementary school students how to analyze literary texts. It demonstrates how interdisciplinary connections between subjects such as literature, native language, visual arts, and music contribute to the development of students’ analytical thinking, aesthetic taste, and oral speech.

Based on practical experience, the study reveals that this approach increases student engagement in lessons, boosts learning motivation, and fosters deeper comprehension of texts.

The article also provides methodological recommendations for designing integrative lesson plans.

Keywords: Primary education, literary text, analysis, integrative approach, interdisciplinary integration, methodology, oral speech, aesthetic taste, analytical thinking.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность интегративного подхода в обучении учащихся начальных классов анализу художественных текстов.

Показано, как межпредметные связи между литературой, родным языком, изобразительным искусством и музыкой способствуют развитию аналитического мышления, эстетического вкуса и устной речи учащихся. На основе практического опыта раскрыто, что данный подход обеспечивает активное участие учащихся в учебном процессе, повышает мотивацию к обучению и способствует более глубокому пониманию текста. В статье также представлены методические рекомендации по организации уроков на основе интеграции.

Ключевые слова: Начальное образование, художественный текст, анализ, интегративный подход, межпредметная интеграция, методика, устная речь, эстетический вкус, аналитическое мышление.

Kirish. “Bugungi zamонавиј та’лим тизими о‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashish, estetik tafakkur va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib

qo‘ygan.¹” Bu jumla orqali zamonaviy ta’limning asosiy talablari va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligi ko‘rsatilmoqda. Unga ko‘ra, bugungi o‘quvchi – faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni tahlil qiluvchi, fikr bildiruvchi va uni muloqotda ifodalay oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv — XXI asr ko‘nikmalari ichida eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Estetik tafakkur — aynan badiiy matnlar vositasida shakllanadi.

Chunki badiiy matnlar orqali o‘quvchi hayotni badiiy idrok qiladi, go‘zallik va yomonlik, yaxshilik va yovuzlik kabi tushunchalarni anglaydi. “Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan ona tili va adabiyot darslarida badiiy matnlarni chuqur tahlil qilish orqali o‘quvchilarining tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish va madaniy ongini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.²” Bu fikr boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatini yoritadi: o‘quvchilar hali o‘quv faoliyatini odatlariga to‘liq ega bo‘lmasa, ammo tilda o‘sib borayotgan bosqichda turadi. Badiiy matnlar — tilning eng boy va ifodali shakli bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali til o‘rganish jarayoni samaraliroq bo‘ladi. Madaniy ongni shakllantirish – bu adabiyotning tarbiyaviy funksiyasi. O‘quvchi matn orqali milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar bilan tanishadi.

“Bu jarayonda integrativ yondashuv — ya’ni turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lab, bir butun metodik asosda dars o‘rganish — pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.³”

Bu yerda maqolaning asosiy tadqiqot yondashuvi – integrativ metodga urg‘u berilmoqda.

Integrativ yondashuv — bu o‘quvchilarining bilimlarini turli fanlar kesimida uyg‘unlashtirish orqali chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtirishga erishish degani. Masalan, badiiy matnni tahlil qilishda tarixiy kontekst, geografik joylashuv, musiqa, tasviriy san’at bilan bog‘lanishlar berilsa, bola tushunchalarni yanada teranroq anglaydi. “Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida badiiy matn tahlilining boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’siri, u orqali erishiladigan natijalar va metodik tavsiyalar tahlil qilinadi.” Ya’ni maqolada: integrativ yondashuvni qanday qo‘llash mumkinligini, bu yondashuvning qanday ijobjiy (yoki ehtimoliy kamchilikli) natjalarga olib kelishini, o‘qituvchilar uchun qanday metodik yo‘riqnama/tavsiyalarni taklif qilish mumkinligi yoritililgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlarni tahlil qilishda integrativ yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida aralash tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Metodlar quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish

Tadqiqotning birinchi bosqichida 4 ta umumiyo o‘rtalim maktabida 2-, 3- va 4-sinf ona tili va adabiyot darslari jarayoni bevosita kuzatildi. Har bir maktabda 1 haftalik darslar (haftasiga 3 ta adabiyot darsi) monitoring qilindi. Kuzatuv jarayonida o‘qituvchilarining matn ustida ishlash metodikasi, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash darjasini, o‘quvchilarining ishtiropi va faolligi maxsus kuzatuv varaqalari asosida baholandi⁴.

2. Eksperimental yondashuv

Tadqiqotning asosiy qismida ikki guruh shakllantirildi:

¹ Karimov B. (2021). Integratsiyalashgan ta’lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan.

² Salimova N. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilan ishlash metodikasi. – Samarqand.

³ Abdurahmonova G. (2020). Ta’limda fanlararo integratsiya. – Buxoro: Pednashr.

⁴ G‘aniyeva, M. (2021). Boshlang‘ich sinfda kuzatuv metodidan foydalanish. Boshlang‘ich ta’lim jurnali, №3, 45–49.

• Tajriba guruhi: badiiy matnlar integrativ metod asosida o‘qitildi (ya’ni, adabiyot darslariga tarix, tabiatshunoslik, musiqa va tasviriy san’at elementlari kiritildi).

• Nazorat guruhi: an’anaviy, ya’ni faqat matn asosidagi klassik dars usullari bilan o‘qitildi.

Har bir guruhga 60 nafardan o‘quvchi jalb qilindi (jami 120 nafar), har bir sinfda 10 dan o‘quvchi. Eksperiment 1 oy davomida olib borildi (12 ta adabiyot darsi). Har darsdan keyin qisqa diagnostik topshiriqlar o‘tkazildi.

3. So‘rovnoma

Tadqiqot davomida o‘quvchilarining o‘z fikrini bildirishi, badiiy matnni qanday qabul qilganliklari, darsda ishtirok darajasi va matnga nisbatan munosabatini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomada:

• 2-4-sinf o‘quvchilaridan 10 ta yopiq va yarim ochiq savollar berildi;

• 8 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan metodik yondashuv va farqlar haqida yozma fikr olindi.

4. Tahliliy-statistik metod

Eksperimentdan olingan natijalar statistik tahlil qilindi. O‘quvchilarining yakuniy baholari, test natijalari va so‘rovnoma javoblari Excel va SPSS dasturlarida qayta ishlaniib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar va farqlar foizlarda aniqlandi.

I Jadval: Tajriba va nazorat guruhi natijalari taqqoslamasi

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Matn mazmunini to‘liq tushunganlar	78	52
O‘z fikrini asoslab ifoda etganlar	72	46
Fanlararo bog‘lanishni aniqlay olganlar	69	38
Matnga ijodiy yondashganlar	75	41

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosida o‘tkazilgan darslar o‘quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq bo‘ldi. Tajriba guruhi ishtirokchilari bir necha muhim kompetensiyalar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni namoyon etdilar.

1. Mustaqil fikrlash va mazmunli javoblar

Tajriba guruhi o‘quvchilarining 78 foizi matn ustida ishlashda mustaqil fikr bildirishga intilgan, savollarga mazmunli, asosli javoblar bergan. Bu ko‘rsatkich nazorat guruhida 52 foizni tashkil etdi. Xususan, “Asarda qaysi voqeа sizga eng qiziq tuyuldimi va nima uchun?” kabi ochiq savollarga berilgan javoblar tahlil qilinganda, tajriba guruhidagi o‘quvchilar sabab-oqibat munosabatini aniqroq izohlay olganlar⁵.

2. Nutq madaniyati va matn asosida xulosa chiqarish

Tajriba guruhi o‘quvchilar dars jarayonida matndan iqtibos keltirish, obrazlarga tavsif berish va ular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishda ancha faol bo‘lishdi.

⁵ To‘xtayeva D. (2021). Matn ustida ishlashda mustaqil fikrlashni shakllantirish. Boshlang‘ich ta’lim, №4, 31–35.

Masalan, "Matndagi bosh qahramonning xarakterini 2–3 jumlada ifoda eting" topshirig'ida ularning 75 foizi mantiqan to'g'ri va mazmunli javob bergan, bu ko'rsatkich nazorat guruhida 49 foizni tashkil etdi².

3. Fanlararo bog'lanish va ijodiy tafakkur

Tajriba darslarida adabiyot bilan tabiatshunoslik, tarix, san'at va musiqa elementlarini birlashtirgan topshiriqlar o'quvchilarda ijodiy tafakkur va keng dunyoqarash shakllanishiga xizmat qildi. So'rovnomada natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 69 foizi matnni boshqa fanlardagi bilimlar bilan bog'lay oldi (nazorat guruhida bu ko'rsatkich 38 foiz bo'lgan).

4. O'qituvchilar fikri

So'rovnomada ishtirok etgan 8 nafar o'qituvchining 87,5 foizi integrativ metodika o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda juda samarali ekanini bildirdilar. Ularning fikricha, bunday metodika o'quvchilarni zeriktirmaydi, aksincha, har bir darsda yangilik kashf qilishga undaydi.

5. Diagnostik yozuvlar natijalari

Eksperiment davrida har 4 darsdan so'ng o'tkazilgan qisqa yozma nazorat ishlarining natijalari quyidagicha:

II Jadval: O'rtacha baholash natijalari (5 ballik tizimda)

Guruh	1-nazorat ishi	2-nazorat ishi	3-nazorat ishi	Yakuniy
Tajriba guruhi	4.0	4.2	4.4	4.3
Nazorat guruhi	3.5	3.6	3.7	3.6

Bu ko'rsatkichlar integrativ metod asosida o'qitilgan o'quvchilarning o'zlashtirishi 15–20% ga yuqoriligini isbotlaydi.

Tahlil. Integrativ yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni nafaqat o'qish, balki uni turli kontekstda tushunish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarishni o'rganishga imkon beradi. Bunda adabiyot, tasviriy san'at, hayotiy tajriba, axborot texnologiyalari vositalari birlashtirilgan holda qo'llanilgani darslarni qiziqarli, boy va samarali bo'lishini ta'minlagan.

Ayniqsa, badiiy matnni sahnalashtirish, rasm chizish, bahs-munozara tarzida yondashuvlar o'quvchilarda chuqur o'zlashtirishni yuzaga chiqargan. Shuningdek, bu usul o'qituvchining darsga ijodkorlik bilan yondashishini, metodik jihatdan yangilik kiritishini rag'batlantiradi.

Xulosa.

Integrativ yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. U o'quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini, ko'p fanli bilimlarni uyg'unlashtirish ko'nikmasini oshiradi. Kelgusida ushbu metodika asosida dars ishlanmalari ishlab chiqish, o'quv qo'llanmalari yaratish, o'qituvchilar malakasini oshirishni takomillashtirish zarur.

REFERENCES

1. Karimov B. Integratsiyalashgan ta'lif: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Salimova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash metodikasi. – Samarqand, 2022.

3. Abdurahmonova G. Ta'limda fanlararo integratsiya. – Buxoro: Pednashr, 2020.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Marzano, R. J. (2003). What works in schools: Translating research into action. ASCD.